

## Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishi– postindustrial jamiyat iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchidir

Dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri milliy iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanib, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan mazkur sohaning muayyan rivojlanishi yuz beradi. Sohada bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi, takomillashgan texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining roli juda katta va dolzarbdir. Bu xususan ishlab chiqarishning murakkablashayotganligi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'ldirilayotganligi, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqidir.

Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, sug'urta va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, xizmatlar tovarlar savdosining tarkibiy qismi hisoblanadi (ayniqsa texnik jihatdan murakkab), chunki tovarlarni sotish asosan sotish vaqtida ko'rsatilayotgan xizmatlardan va sotishdan so'ng ko'rsatiladigan xizmatlardan iborat tobora rivojlanib borayotgan tarmoqni talab qiladi.

Shak-shubhasiz yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinalarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

2020-yil 1-fevral holatiga Toshkent shahrida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 85,4 mingtaga yetdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasida 62,6 mingtasi iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan 73,3 % ga yetib, 2019-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 21,0 % ga oshdi.

**2020-yil 1-fevral holatiga faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020-yil 1-fevral holatiga, xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo xizmatlari bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (34,7 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 9,8 % ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi xizmatlar sohasiga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi umumiy sonida 5,5 % ga yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 5,2% ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

**2020-yil 1-fevral holatiga xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari bo'yicha tuzilmasi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakatda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda va shu sababli, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

**2020-yil yanvar oyida xizmat ko'rsatish  
sohasida yangi tashkil etilgan korxona  
va tashkilotlar soni, yuz birlik**



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik tumanlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.



**O'sish sur'ati  
113,6 %**

**Hajmi 1 178,2  
mlrd. so'mga  
oshdi**

**Xizmatlar hajmi  
5 491,6  
mlrd. so'm**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 491,6mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 1 178,2 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 13,6 % ni tashkil etadi.

## 2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Eng yuqori o'sish sur'atida sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (134,2 %), moliyaviy xizmatlar (132,0 %) aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (123,2 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (111,0 %), savdo xizmatlari (108,2 %) qayd etildi.

Yuqori bo'limgan o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlar (97,5 %), shuningdek me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (95,7 %) qayd etildi.




**2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>5 491,6</b>	<b>113,6</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	505,8	123,2
Moliyaviy xizmatlar	1 729,0	132,0
Transport xizmatlari	577,6	100,6
Shu jumladan: avtotransport xizmatlari	368,2	106,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	210,1	104,8
Savdo xizmatlari	1 287,7	106,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	240,5	105,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	208,8	97,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	112,9	134,2
Ijara xizmatlari	117,5	100,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	27,5	111,0
Shaxsiy xizmatlar	70,5	104,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	134,6	95,7
Boshqa xizmatlar	269,0	101,2

Sifatli o'zgarishlar va institutsional islohotlar chuqurlashishi bilan bir qatorda chakana savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmatlar kabi xizmat turlari asosan xususiy tadbirkorlikni faollashuvi hisobiga jadal rivojlanmoqda.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot kommunikatsiya xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televideniye va hokazo) kabi zamonaviy aloqa xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha masalalar alohida ahamiyatga ega.

### **2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tuzilmasi, %**




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 491,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, uning nominal hajmi 1 178,2 mlrd. so'mga oshdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

Bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida Yunusobod tumanining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 17,6 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.


**2020-yil yanvar oyida bozor  
xizmatlarining umumiyligi hajmida tumanlarning ulushi, %**



Shuningdek, eng katta ulush Mirobod (15,7 %), Yashnobod(11,9%), Chilonzor (11,0 %), Mirzo Ulug'bek (9,8 %) va Shayxontohur (9,5 %) tumanlarida qayd etilgan.

Xizmatlar sohasining eng past ko'satkichlari Yakkasaroy (5,9 %), Olmazor (5,4 %), Sirg'ali (5,3 %), Uchtepa (4,6 %), Bektemir (2,8 %) tumanlarida qayd etildi.

**2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Eng yuqori o'sish sur'atlari sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (134,2 %), moliyaviy xizmatlar (132,0 %), aloqa va axborotlashtirish (123,2 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (111,0%), savdo xizmatlari (106,1 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar(105,1 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (104,8 %), shaxsiy xizmatlarda (104,8 %) qayd etildi.

Eng past o'sish sur'atlari boshqa xizmatlar (101,2 %), transport xizmatlari (100,6 %), ijara xizmatlari (100,2 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (97,5 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (95,7%) qayd etildi.



(dastlabki ma'lumotlar)

**2020-yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mldr. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Toshkent sh.</b>	<b>5 491,6</b>	<b>113,6</b>
<i>tumanlar:</i>		
Bektemir	153,1	109,7
Mirzo Ulug'bek	537,4	100,7
Mirobod	859,8	107,8
Olmazor	297,3	120,7
Sirg'ali	292,1	100,4
Uchtepa	251,7	106,9
Chilonzor	605,5	134,8
Shayxontohur	523,9	105,4
Yunusobod	966,3	120,8
Yakkasaroy	322,5	97,0
Yashnobod	653,5	134,5
Tumanlardan tashqari	28,4	90,1

Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvatlash bo'yicha

(dastlabki ma'lumotlar)

ko'rileyotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tuzilmasidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, internet xizmatlari, maishiy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.

### **2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tuzilmasi, %**



Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi eng katta 31,5 % ni tashkil etadi.

Shu bilan birga, eng yuqori ulush savdo xizmatlari (23,4 %), transport xizmatlari (10,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (9,2%), boshqa xizmatlar (4,9 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (4,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,8 %), yashash va ovqatlanish

(dastlabki ma'lumotlar)

xizmatlarida (3,8 %), shuningdek me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (2,5 %) kuzatildi.

2020-yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 729,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 514,1 mlrd. so'mga oshdi.

### **2020-yil yanvar oyida tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati, %**




2019-yil yanvar oyiga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Chilonzor (2 barobarga), Uchtepa (65,6 %) va Yashnobod (56,5%) tumanlarida kuzatilmogda.

Boshqa tumanlarga nisbatan shu davr uchun o'sish sur'atlari Bektemir (104,5 %), Olmazor (101,8 %), Shayxontohur (97,0 %) tumanlarida sezilarli emas.

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 91,4 % ni tashkil etadi.

## 2020-yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning tuzilmasi, %



Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidan bormoqda. Shunday qilib savdoda qisqa vaqt ichida uning kichik va eng chakana tashkilotning kichik shakllari, kichik-chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, yengil konstruksiyali va yarmarka turidagi pavilionlar soni ko'paymoqda.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi tezda hal qilindi, xaridor esa buning natijasida mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynab, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtaсидаги aloqani amalga oshiradigan, tovarlar ishlab chiqarish hajmi va tuzilmasiga, shuningdek, ularning turfa xilligi va sifatini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

*(dastlabki ma'lumotlar)*


2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 23,4 % ni tashkil etib, bu 1287,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) umumiyligi savdo xizmatlari hajmining qariyb yarmi – 47,8 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar oyida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) xizmatlarining ulushi 44,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.

### 2020-yilning yanvar oyi uchun savdo xizmatlari tuzilmasi, %



Transport xizmatlari hajmining oshishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turizm faoliyatining jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish bo'yicha loyihalarning yanada amalga oshishi, binolar va


*(dastlabki ma'lumotlar)*

inshoatlarni, shuningdek transport-logistik infratuzilmani rekontruksiya qilish bilan bog'liq.

Hozirgi kunda Toshkent shahrida transport infratuzilmasini rivojlantirish va mamlakatning barcha yo'nalishlari hamda transportning barcha turlari bilan yuk va yo'lovchilarni tashishdagi ta'minlash uchun katta imkoniyatlarga ega.

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

### 2020-yil yanvar oyida transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tuzilmasi, %



Transport xizmatlari umumiyligi hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 63,7 % ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, saqlash va yordamchi transport xizmatlari 34,1 % ni tashkil qilgan bo'lsa, kuryerlik va pochta faoliyati ulushi 2,0 %, temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar esa 0,2 %ga yetdi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnika va aloqa vositalari bilan jadal to'ldirish yuz bermoqda.

*(dastlabki ma'lumotlar)*


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarda boshqaruva va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi. Bu oxir-oqibat aholi hayotining yaxshilanishiga olib keladi.

2020-yil yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 505,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sishi 23,2 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmiy hajmdagi ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va hokazo) egallab, uning ulushi 66,1 % ni tashkil etdi.

### 2020-yil yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tuzilmasi, %



Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiylajmiy hajmida nashriyotchilikning ulushi 7,9 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa shu kabi xizmatlarning ulushi – 13,4 %,

*(dastlabki ma'lumotlar)*

axborot sohasidagi xizmatlar - 4,6 %, boshqa xizmatlar – 8,0 % ni tashkil etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli ixtisoslashgan sohalarda yuqori darajadagi mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkun.



2020-yil yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 208,8 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,1mlrd. so'mga ko'paydi.

2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;


ta'limning xalqaro standartlarini joriy etish va o'qitish sifatini baholash, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich oshirish, oliy ta'lim muassasalarining sifati va samaradorligini oshirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini

(dastlabki ma'lumotlar)

yaratish, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriylar, yuqori texnologiyali markazlar va texnoparklarni tashkil etish.

**2020-yil yanvar oyida tumanlar kesimida  
ta'lim sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm.**




Talim sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Mirobod tumanida qayd etildi. 2020-yil yanvar oyida 46,4 mlrd. so'mga yetdi.

Buning sababi shundaki, oliy ta'lim muassasalarining to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatuvchi eng ko'p qismi, shuningdek xorijiy oliy o'quv muassasalarining filiallarining bu yerda joylashganlidadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha yuqori o'sish sur'ati Mirobod tumanida – 133,4% ni tashkil etdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

**2020-yil yanvar oyida tumanlar kesimida  
ta'lif sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish  
sur'ati, %**



Bundan tashqari, ta'lif sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Chilonzor (124,7 %) va Yashnobod (114,7 %) tumanlarida qayd etildi.

2020-yil yanvar oyida eng past o'sish sur'ati Mirzo Ulugbek tumanida – 44,4 % qayd etildi.


### Yashash va ovqatlanish xizmatlari



2019-yil yanvar oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil etdi, hajmi esa 43,2 mlrd. so'mga oshib, 210,1 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 74,0 % bilan ustunlik qiladi.


### 2020-yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tuzilmasi, %



- Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar
- Yashash xizmatlari

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan yanvar oyida yashash bo'yicha xizmatlar hajmi 43,2 mlrd. so'mga oshib, ulushi 4,8 % ni tashkil etdi. Ushbu turdag'i xizmatlarning o'sishiga aholining dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottejlar va boshqa dam olish maskanlariga bo'lgan talabining yuqoriligi sabab bo'ldi.

**2020-yil yanvar oyida tumanlar kesimida  
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning  
hajmi va o'sish sur'ati**



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Yunusobod tumanida 52,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2019-yil yanvar oyiga nisbatan 16,0 mlrd. so'mga oshishi qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng kichik hajmi Bektemir tumanida – 2,0 mlrd. so'm qayd etilib, 0,9 mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarining eng yuqori o'sishi Shayxontohur tumanida qayd etildi (131,5%). Bundan tashqari,


(dastlabki ma'lumotlar)

Bektemir (111,9%) va Olmazor (110,5 %) tumanlarida xizmatlar o'sishi kuzatildi.

Yakkasaroy tumanida o'sish sur'ati katta bo'Imagan bo'lib 96,5 foizni tashkil etgan.

2020-yil yanvar oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 112,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 134,2 % ni tashkil etdi.

### **Jami sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning tumanlar ulushida taqqoslanishi, %**



Toshkent shahrida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan. Eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.



(dastlabki ma'lumotlar)

Tumanlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha yetakchi o'rinni Olmazor tumani egalladi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 18,0 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmiy hajmidagi ulushi 22,6 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Mirzo Ulug'bek(16,9 %) va Chilonzor (12,8%) tumanlarida qayd etildi.

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmiy hajmidagi xizmatlar ulushi nisbatan katta bo'lмаган tumanlar Bektemir (0,6 %) va Sirg'ali (1,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamонавиј xizmat turlariga bo'lган iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

## Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-88-15